

ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RIYATIDA INSONIY FAZILAT VA ILLAT KONSEPSIYALARI TAHLILI

Sanoyeva Sanam Baxtiyorovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek-rus adabiyotining yorqin vakili Aleksandr Faynbergning "Zomin" she'ridagi yetuklik va hasadgo'ylik tushunchalari borasidagi falsafaviy qarashlari tahlil qilingan. Ushbu she'rning buyuk o'zbek shoiri Abdulla Oripovga bag'ishlanganligi sabablari va ikki ijodkor orasidagi do'stona munosabatlar izohlangan. Tadqiqotda poetik tahlil orqali she'rning g'oyaviy-mazmuniy mohiyati o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Aleksandr Faynberg, fazilat, illat, yetuklik, hasad, Abdulla Oripov, munosabat, poetik tahlil.*

Abstract: *This article analyzes the philosophical views of Alexander Feinberg, a prominent representative of Uzbek-Russian literature, on the concepts of maturity and jealousy in the poem "Zomin". The reasons for the dedication of this poem to the great Uzbek poet Abdulla Oripov and the friendly relations between the two creators are explained. The study studies the ideological and substantive essence of the poem through poetic analysis.*

Keywords: *Alexander Feinberg, virtue, vice, maturity, jealousy, Abdulla Oripov, attitude, poetic analysis.*

Ikki millat shoir va tarjimoni hisoblangan Aleksandr Faynberg adabiyot tarixi nafaqat o'zining betakror she'rlari, balki mohirona tarjimalari bilan muhim o'rinni egallaydi. U Alisher Navoiy g'azallarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilib, o'zbek adabiyotining dunyoga keng yoyilishiga ulkan hissa qo'shgan. O'zining "Zomin" nomli she'rini O'zbekiston Respublikasi madhiyasi muallifi bo'lmish Abdulla Oripovga bag'ishlagani esa uning boshqa millat vakili bo'lsada, o'zbek ijodkorlariga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromini namoyon qiladi.

Azaldan dunyoda yaratgan egam,
Bir yaxshiga bir yomon degan hayotni.
Iste'dodi yuksak har shoirga ham,

Hamroh qilgan doim bir pastkash zotni. Ushbu birinchi misrada shoir hayotda hamma inson ham birdek yaxshi bo'lmasligini, yaxshilik va yomonlik birga yurishini go'zal tarzda ifodalab bergan. Ya'ni yetuk, iste'dodli insonlarni ko'ra olmaydiganlar ma'naviy nosog'lom, pastkash shaxslar bo'lishi odatiy hol dep izohlanadi.

Iste'dodsiz kishi ich-etini yeb,
Hasad va qo'rquvda ko'rar ekan kun.
Bizning ko'ksimizga hur shamol tegib,

Baland osmonlarda uchgaymiz mamnun. Bu misrada hasadg'oy inson hech qachon baxtli yashay olmasligi, yaxshi insonlarga yomonlik tilagani bilan rohatga erisha olmasligi ta'kidlangan. Ammo yetuk insonga buning ahamiyati yo'q, u doimo baxtiyor va muvaffaqiyatga erishishni davom etaveradi deydi shoir.

Zomin. Yoz. Yulduzlar chalur ajib soz,
Ohang may kayfidek aylar bizni mast.
Mayli, u imzosiz xatga bitsin roz,

Unga kuy tinglashni buyurgan emas. Ushbu misra O'zbekistonning go'zal maskanlaridan biri bo'lgan Zominning yoz kechalari go'zalligini kuylash bilan boshlanmoqda. Bunday tabiatdagi tun navosi iste'dodli kishiga maydek kayf, ilhom bersa, hasadgo'y kimsa"imzosiz xatga roz bitadi"ya'ni kimligini yashirib turli mish-mish va tuhmatlar tarqatadi. Chunki uning qalbi hasad va nafratga to'lganligi bois tabiat yaratadigan bunday yoqimli hislardan yiroqda, u buni his qilishga qodir emas va bu go'zallikdan ilhomlangan kishilarni ko'ra olmaydi.

Bizlar ucharkanmiz shamolda ozod, Ular hasad qilsin, mayliga, zimdan. Shoir larni ko'kka ko'tarsa hayot, Boplab kular ekan hasadgo'y – shumdan. Bu jumlada haqiqiy shoir ozod qushdek erkin ucha olishi, dushmanlar esa yashirin hasad qilishi ta'kidlanmoqda. Shuningdek, hayot ya'ni haqiqiy mehnat shoirni ko'kka ko'taradi, mashxur qiladi. Hasadgo'y esa buni tan olgisi kelmaydi. Ich-ichidan unga o'xshashni xohlasada, buni inkor qiladi va uni mazax qilib, yutuqlarini mensimagandek ko'rsatadi.

Toshlarga urilib, qiqirlar irmoq,
Archalar o'ralgan qoyalar kumush,
Zero, ig'vogarlar bilan bahs qurmoq,

Azaldan kulgili, bema'ni yumush. Ushbu yakuniy misrada esa juda kuchli o'xshatish va haqiqat yashiringan. "Irmok toshlarga urilib qiqirlaydi"ya'ni shoir hasadgo'ylar ishidan tashvishlanmaydi, balki bundan kuch olib yanada yuksaladi. Go'yoki irmok toshlarga urilib, o'z yo'lini topgani kabi. "Archalar o'ralgan qoyalar kumush"bu yerda qoya archalar bilan o'ralgan bo'lsada, u kumushdek, doimiy yuksak va mustahkam. Shoir atrofi ham g'araz niyatli kishilar bilan to'la bo'lishiga qaramay, u har doim o'z nomi, mehnati bilan xalq orasida shuhrat qozonaveradi.

Aleksandr Faynbergning mazkur she'ri chuqur ma'noga ega bo'lib, faqat shoir va hasadgo'y obrazlari tasvirlangan bo'lishiga qaramay, kitobxonlarga har qanday muvaffaqiyatga erishish davomida turli xil salbiy fikrlar-u ko'ngilsizliklarga duch kelish mumkinligi va ularni qanday yengib o'tish kerakligi borasida saboq berilgan. Shuningdek, Faynberg ushbu ijodiy ishini Abdulla Oripovga bag'ishlaganligining sabablarini qidiradigan bo'lsak, ikkala shoir ham ayni bir davrda yashab ijod qilgan. Tarixiy manbalar va "Abdulla Oripov"milliy badiiy filmidan bizga ma'lumki, mustaqillikdan oldingi davrda Abdulla Oripovni "xalq dushmani" nomi bilan ayblashga ko'plab harakatlar qilinadi. Faynberg aynan bu hodisalarning guvohi bo'lganligi bois 2006-yilda iste'dodli shoirimizga atab "Zomin" she'rini yozadi. She'rga aynan bunday nom berilishiga Zominning mag'rur va yuksak tog'lari Abdulla Oripovga qiyoslangan bo'lsa, ehtimol. Ikki buyuk shoir orasidagi do'stona munosabatlarni

Oripovning quyidagi so'zlari yana bir bor istoblaydi: "Aleksandr Faunbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizda samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Oripov. Milliy badiiy film Toshkent. O'zbekkino milliy agentligi, 2021
2. Aleksandr Faynberg (2021) qoralamaga qasida. Toshkent adabiyot.
3. O'bek tilining izohli lug'ati. Toshkent 2006.
4. Umarov, H. (2004) Adabiyot nazariyasi. Toshkent. O'qituvchi.
5. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksabdr-arkadevich>
6. <https://uz.wikipedia.org>